

“Yilning eng yaxshi yordamchi agent – 2025” tanlovi davom etmoqda.


Tanlov 14 ta viloyat, 208 ta tuman va shaharni qamrab oldi. Birinchi bosqichda 4 467 nafar yordamchi agent ishtirok etdi. Baholash mezonlari asosida 624 nafar ishtirokchi keyingi bosqichga o‘tdi.

Tanlovning maqsadi mahallalarda bank xizmatlarining qulayligini va ommabopligini oshirish va aholining moliyaviy savodxonligini yuksaltirishdan iborat.

Yordamchi agent — bankning mahalladagi moliyaviy vakili. U aholi uchun shaxsiy moliyaviy resurslarni boshqarish va oilaviy byudjetni yuritishga oid ko‘nikmalarni, jamg‘arish madaniyatini shakllantirish, tadbirkorlik faoliyatiga mos bank xizmatlari, davlat dasturlari to‘g‘risida aholining xabardorligini oshirish, bank xizmatlarini tushuntirish hamda ulardan to‘g‘ri va xavfsiz foydalanishda amaliy yordam ko‘rsatadi, tadbirkorlar hamda oilalarga maslahat beradi. Yordamchi agentlar faoliyati tufayli 2025 yil iyul holatiga ko‘ra 1,1 milliondan ortiq yangi hisobvaraqa va kartalar ochildi. Bu aholining moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini bevosita kengaytirdi.

Hududlar va banklar faolligi

RESPUBLIKA BO‘YICHA YORDAMCHI AGENTLAR TANLOVDA FAOL ISHTIROKI



*Saralash bosqichi natijalariga ko‘ra

YORDAMCHI AGENTLAR TANLOVDA FAOL ISHTIROKI BO‘YICHA STATISTIKA



Ishtirokchilar soni
(viloyatlar kesimida)



TOP 5

Davlat ulushiga ega
tijorat banklar

*Ishtirokchilar soniga ko‘ra



TOP 5

Tijorat banklar

*Ishtirokchilar soniga ko‘ra

Banklar kesimida Agrobank, Xalq banki va Mikrocreditbank yetakchi. Shuningdek, Aloqa banki va Milliy bank sezilarli natija ko‘rsatdi. Qator hududlarda BRB va SQB barqaror ishtirok etgan, biroq ularning qamrovi nisbatan kichik.

Samarqand, Xorazm va Namangan — eng ko‘p ishtirokchi qayd etilgan hududlar. Toshkent shahri, Buxoro va Sirdaryo — faollik nisbatan mo‘tadil.

VILOYATLAR KESIMIDA YORDAMCHI AGENTLAR TANLOVDA FAOL ISHTIROKI



VILOYATLAR KESIMIDA YORDAMCHI AGENTLAR TANLOVDA FAOL ISHTIROKI



Banklardan tanlovda ishtirok etgan yordamchi agentlar soni

*Saralash bosqichi natijalariga ko'ra

Banklardan tanlovda ishtirok etgan yordamchi agentlar soni

*Saralash bosqichi natijalariga ko'ra

VILOYATLAR KESIMIDA YORDAMCHI AGENTLAR TANLOVDA FAOL ISHTIROKI



VILOYATLAR KESIMIDA YORDAMCHI AGENTLAR TANLOVDA FAOL ISHTIROKI



Banklardan tanlovda ishtirok etgan yordamchi agentlar soni

*Saralash bosqichi natijalariga ko'ra

Banklardan tanlovda ishtirok etgan yordamchi agentlar soni

*Saralash bosqichi natijalariga ko'ra

Ushbu qamrov yirik hamda kichik banklar va ko'plab hududlarning jalb etilgani mahalliy darajadagi sog'lom raqobatni mustahkamlab, faollikni oshirmoqda.

Ikkinchi bosqich

Sentabr oyidan tuman darajasidagi ikkinchi bosqich boshlandi. Ishtirokchilarga bir oy davomida maktablarda, mahallalarda, bozorlarda hamda tadbirkorlar bilan 30 tagacha uchrashuv o'tkazish topshiriladi. Asosiy mavzular:

- Biznesga yo'naltirilgan bank mahsulotlari targ'iboti;
- Firibgarlardan ogohlikka chaqirish bo'yicha targ'ibot;
- Omonatlar bo'yicha targ'ibot;

Yordamchi agentlar moliyaviy xizmatlarni aholiga yaqin va tushunarli qiladi, odamlarni puldan oqilona foydalanishga o'rgatadi, yangi g'oya va loyihalar uchun mustahkam zamin yaratadi.